

YO'G'ON ICHAK O'SMALARINI BOSQICHINI ANIQLASHDA MSKT TEKSHIRUVINI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI, AHAMIYATI

Ziyoviddinov Behzodjon Bohodirjon o'g'li

Ismailova Munojot Xayatovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Tadqiqot maqsadi: yo'g'on ichakning turli qismlari o'smalarini bosqichlashda multispiral kompyuter tomografiyasi(MSKT) tekshiruvini o'ziga xos belgilarini aniqlash va tahlil qilish. O'smalarni o'sishini ichak devoriga invaziyasini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari: tadqiqot uchun Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolangan 74 nafar yo'g'on ichak o'smasi bilan kasallangan bemorlarning 2020-2022 yillardagi ma'lumotlari olindi. Barcha bemorlar turli uslubdagi: nativ, uch fazali va per os kontrastli MSKT tekshiruvining biridan yoki hammasidan o'tgan. MSKT natijasi operatsiyadan so'nggi gistologiya tekshiruv natijasi bilan taqqoslangan.

Natijalar: davolashdan oldingi davrdagi tekshiruvda turli bemorlarda tekshiruv davomida quidagilar aniqlandi.

A) o'smaning turi: ichak devori bir hilda qalinlashgani 30 % , ichak devori turli hilda qalinlashgani 65%, yumshoq to'qimali hosila 5%; B) O'sma strukturasi: bir turda 55%, bir turda bo'lmagan 45%; C) ichak tashqi devori: aniq 64%, noaniq 34%; D) densitometrik zichlik: -86.2_+18.5

Xulosa: MSKT tekshiruv yug'on ichak o'smasi ichak devoriga invaziyasini tekshirish uchun yuqori informativ usul hisoblanadi. Operatsiya oldi davrida operatsiya hajmini belgilash va davolash taktikasini tuzishda va hajmli jarayonning to'g'ri bosqichini aniqlashda ham MSKT tekshiruv o'rni beqiyosdir.

1. Ziyoviddinov Behzodjon Bohodirjon o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy radiologiya kafedrasida 3 kurs magistri, Namangan viloyati Namangan shahri, Quyi Rovuston MFY 25, tel. +998994324510 E-mail: behzodjonziyoviddinov96@gmail.com

2. Ismailova Munojot Xayatovna. Toshkent tibbiyot akademiyasi Tibbiy radiologiya kafedrasida mudiri t.f.n Dotsent. Tel. +998909410024